Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Oktabr
№10, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 373-sahifa.
2026-yil, oktabr.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

KONSTANTIN IVANOVICH KURPAYANIDI
Green energy transition in Central Asia: capacity growth, technological diversification and system constraints.....11
TURSUNKULOVA GULCHIROY BURXONOVNA
Meva-sabzavotchilik korxonalarida biologik aktivlarni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....24
MO‘MINOV ABDUVALI AKBARALIEVICH, DJO‘RAEV MUQIMJON YAQUBJONOVICH
Tritikale seleksiyasida molekulyar markerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi: QTL, SSR, SNP va KASP yondashuvlari asosida.....30
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq yetishtirishda oqqanotga qarshi kimyoviy himoya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....43
SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH
Valyuta kursi tebranishlari indeksini hisoblash va baholash.....53
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq ekinlarida o‘rgimchak kanaga qarshi kimyoviy kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....63
SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI
Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholi daromadlarining o‘rni haqidagi nazariy yondashuvlar.....73
МУСТАФОКУЛОВА ЗАРИФА
Сравнительный анализ лидерства в условиях кризиса и роль молодых лидеров в развитии.....80
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va tasnifi.....87
RAXIMJONOVA SHOHSANAM BAXODIROVNA
Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishda "Value for Money" (VfM) baholash mexanizmini takomillashtirish.....95
QURBANOVA OYDIN TO‘LQIN QIZI
Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning integral ko‘rsatkichini shakllantirish.....101
SADIKOVA SHOHIDA OBIDQUL QIZI
O‘zbekistonda piyoz yetishtirishning iqtisodiy o‘rni va samaradorligi.....108
XAKIMOV RASHID
Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni va samaradorligi.....119

TOJIMATOV IZZATBEK IKROMALI O‘G‘LI
Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida intellektual marketing strategiyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....133
SODIQOVA GAVHAR XAYRULLA QIZI
Xodimlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....142
ERGASHEV ASADBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI, TURSUNOV G‘IYOS SUNNAT O‘G‘LI
Meva-sabzavotlarni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni biotexnologik qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish.....148
RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH
Raqamli texnologiyalar va CRM tizimlarining kichik biznesdagi o‘rni.....155
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarini buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning tahlili.....168
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ekonometrik baholash.....185
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholashning nazariy-metodologik asoslari.....192
MUHAMMADIEV NAUFALBEK AZIZXON O‘G‘LI
Elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanishning kichik biznes savdo hajmiga ta’siri.....202
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ
Процедура нормирования частных показателей при оценке ресурсного потенциала аграрного сектора: сравнительный анализ методов и обоснование выбора.....210
XASANOVA RUXSORA RASULJON QIZI
O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....223
UMAROVA XUSNORA DILMUROD QIZI
Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish korxonalarini moslashuvchan (adaptiv) boshqarishning ma’lumotlarga asoslangan modelini takomillashtirish.....229
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ, ХОЛБЕКОВ ЖУРЪАТ АБДИНАБИЕВИЧ
Теоретико-методологические основы оценки ресурсного потенциала аграрного сектора: концептуальный подход и методика интегральной оценки.....234
UMARALIYEV DIYORBEK SHUKIRALI O‘G‘LI
Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishning fermer xo‘jaliklari xarajat va daromadlariga ta’siri: subsidiya samaradorligining iqtisodiy bahosi (2019–2025 yillar).....247

MIRAXMEDOVA KAMOLA
O‘zbekistonda turizm korxonalarini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....254
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
O‘zbekistonning xalqaro soliq tizimiga integratsiyasi: BEPS minimum standartlari va ularning milliy soliq siyosatidagi ahamiyati.....261
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash.....274
BAXADIR ADILCHAEV
Agroturizm qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....283
XO‘JAMOVA LATOFAT ASADULLAEVNA
Yashil iqtisodiyot sharoitida agrobiznesda innovatsion jarayonlarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.....290
BOZOROV BOBUR HAQBERDIYEVICH
Qurilishni moliyalashtirish samaradorligiga narx omillarining ta’sirini ekonometrik baholash.....297
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
Chegaralararo soliq munosabatlari: muammolar va rivojlanish istiqbollari.....307
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
O‘zbekiston kimyo sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida mavsumiylikning moliyaviy barqarorlikka ta’siri: panel tahlil (2018–2026-yillar).....322
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Surxondaryo viloyatida anor ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....331
ЛЯМКИНА ВИКТОРИЯ АЛЕКСАНДРОВНА, НАБИЕВА АНОРГУЛ МУХАМЕТКАЗИЕВНА
Механизмы трансформации и управления предпринимательским университетом в условиях цифровой экономики.....338
YUSUFALIYEV OLIMJON ABDURAXMONOVICH
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish.....347
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH
Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish istiqbollari.....358
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
Mavsumiy moliyaviy siklni identifikatsiyalash va moliyaviy barqarorlikning mavsumiy tuzatilgan ko‘rsatkichlari (mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi korxona misolida).....365
QODIROV ZOHIDJON ERALIEVICH
Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari.....373

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA TAMOYILLARI

QODIROV ZOHIDJON ERALIEVICH
Andijon davlat texnika instituti i.f.f.d. (PhD), dotsent
E-mail: zohidjonmatematik7218@gmail.com
ORCID: 0009-0003-4652-1856

Annotatsiya. Maqolada suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati, suvdan samarali foydalanishning nazariy asoslari va asosiy tamoyillari yoritilgan. Suv resurslarining cheklanganligi, ularga bo‘lgan talabning ortib borishi, qishloq xo‘jaligi va boshqa iqtisodiyot tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, suv resurslarini boshqarishda iqtisodiy baholash, tejamkorlik, resurslarni oqilona taqsimlash, ekologik barqarorlik va institutsional hamkorlikning ahamiyati asoslab berilgan.
Kalit so‘zlar: suv resurslari, iqtisodiy boshqaruv, suvdan foydalanish samaradorligi, suv tejamkorligi, iqtisodiy baholash, resurslarni taqsimlash, ekologik barqarorlik, qishloq xo‘jaligi.

Аннотация. В статье раскрываются экономическая сущность управления водными ресурсами, теоретические основы и основные принципы эффективного водопользования. Проанализированы ограниченность водных ресурсов, рост спроса на них, а также вопросы повышения эффективности использования воды в сельском хозяйстве и других отраслях экономики. Кроме того, обосновано значение экономической оценки, ресурсосбережения, рационального распределения ресурсов, экологической устойчивости и институционального взаимодействия в управлении водными ресурсами.
Ключевые слова: водные ресурсы, экономическое управление, эффективность водопользования, водосбережение, экономическая оценка, распределение ресурсов, экологическая устойчивость, сельское хозяйство.

Abstract. The article examines the economic essence of water resource management, the theoretical foundations and basic principles of efficient water use. It analyzes the limited availability of water resources, the growing demand for water, and issues related to improving the efficiency of water use in agriculture and other sectors of the economy. Furthermore, the article substantiates the importance of economic assessment, resource conservation, rational resource allocation, environmental sustainability, and institutional cooperation in water resource management.
Keywords: water resources, economic management, water use efficiency, water conservation, economic assessment, resource allocation, environmental sustainability, agriculture.

KIRISH

Suv resurslari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, aholi turmush darajasini oshirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim strategik resurs hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, sanoat, energetika va kommunal xo‘jalikning barqaror faoliyati ko‘p jihatdan suv resurslarining mavjudligi hamda ulardan samarali foydalanishga bog‘liq.

Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi, aholi sonining o‘sishi, iqtisodiyot tarmoqlarida suvga bo‘lgan talabning ortishi va suv manbalarining hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanishi suv resurslarini boshqarish masalasining dolzarbligini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, sug‘orma dehqonchilik muhim o‘rin tutadigan O‘zbekiston sharoitida suv resurslarini oqilona boshqarish iqtisodiy xavfsizlik va oziq-ovqat ta’minoti bilan bevosita bog‘liq.

Suv resurslarini boshqarish faqat suvni yetkazib berish yoki uning taqsimotini tashkil etishdan iborat emas. U suvdan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlar va natijalarni baholash, iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtirish, suvni tejashni rag‘batlantirish hamda ekologik oqibatlarni hisobga olishni ham qamrab oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va tamoyillarini o‘rganishda milliy qonunchilik hujjatlari, rasmiy statistik ma’lumotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlari muhim nazariy va amaliy manba hisoblanadi. Mazkur manbalar suv resurslaridan oqilona foydalanish, ularni iqtisodiy baholash, taqsimlash va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish masalalarini turli nuqtai nazardan yoritish imkonini beradi.

Suv resurslarini boshqarish iqtisodiy rivojlanish, qishloq xo‘jaligi samaradorligi va ekologik barqarorlik bilan bog‘liq holda tadqiq etish [1], suv iste’molchilarining majburiyatlari va resurslarni muhofaza qilish talablarini belgilash muhim ahamiyatga ega [3].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2024 yilgi Jahon suv resurslarini rivojlantirish to‘g‘risidagi hisobotida suv resurslarini boshqarishni faqat texnik yoki ekologik muammo sifatida emas, balki iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy hamkorlik bilan bog‘liq kompleks jarayon sifatida ko‘rib chiqish zarurligini asoslaydi. [4,5].

Integratsiyalashgan yondashuv suv resurslarini taqsimlashda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarni birgalikda hisobga olishni nazarda tutadi. Bu tamoyil, ayniqsa, suv resurslari cheklangan, qishloq xo‘jaligi suv iste’molining muhim qismini tashkil etadigan hududlar uchun katta ahamiyatga ega [6,7].

Suv va yer resurslari taqchilligi sharoitida suv resurslaridan foydalanishni fermer xo‘jaliklarining ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot hajmi va iqtisodiy natijalari bilan bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi [8,9,10,11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va tamoyillarini o‘rganishga qaratilgan tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil, statistik tahlil va ilmiy abstraksiya usullari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida suv resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari, ularni iqtisodiy baholash mexanizmlari, resurslarni oqilona taqsimlash va suv tejamkorligini ta’minlash masalalari o‘rganiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati mavjud suv zaxiralarini iqtisodiyot tarmoqlari va iste’molchilar o‘rtasida oqilona taqsimlash, ulardan olinadigan ijtimoiy-iqtisodiy natijalarni oshirish hamda suvdan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlarni maqbullashtirishdan iborat.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Suv tabiiy resurs bo‘lishi bilan birga ishlab chiqarish jarayonining muhim omili ham hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligida suv ekinlarning hosildorligiga, mahsulot tannarxiga va fermer xo‘jaliklarining daromadiga ta’sir ko‘rsatadi. Sanoatda esa suv ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta’minlaydi. Shu sababli suv resurslarini boshqarishda ularning tabiiy xususiyatlari bilan bir qatorda iqtisodiy qiymati va muqobil foydalanish imkoniyatlari ham hisobga olinishi lozim.

Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mazmuni quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Resurslarni taqsimlash. Mavjud suv hajmini iqtisodiyot tarmoqlari, hududlar va iste’molchilar ehtiyojlariga muvofiq taqsimlash.

Iqtisodiy samaradorlikni oshirish. Bir birlik suv hisobiga ko‘proq mahsulot yoki qo‘shilgan qiymat yaratish.

Suv tejamkorligini rag‘batlantirish. Zamonaviy sug‘orish texnologiyalari va tejamkor ishlab chiqarish usullarini joriy etish.

Ekologik zararni cheklash. Suvning ifloslanishi, ortiqcha sarflanishi va tabiiy ekotizimlarga salbiy ta’sirini kamaytirish.

Uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlash. Suv zaxiralaridan kelajak avlodlar ehtiyojlarini ham hisobga olgan holda foydalanish.

Demak, suv resurslarini iqtisodiy boshqarishning asosiy vazifasi suvga bo‘lgan ehtiyojni qondirish bilan uning cheklanganligi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashdan iborat.

Suv resurslarini samarali boshqarish muayyan iqtisodiy, tashkiliy va ekologik tamoyillarga asoslanadi.

1. Ilmiy asoslanganlik tamoyili. Suv resurslarini boshqarish qarorlari ishonchli ma’lumotlar, suv balansi, gidrologik kuzatuvlar, iqtisodiy hisob-kitoblar va prognozlar asosida qabul qilinishi lozim. Bu suvga bo‘lgan talabni aniqlash va kelajakdagi taqchillik xavfini baholash imkonini beradi.

2. Iqtisodiy samaradorlik tamoyili. Suv resurslari ulardan olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy natijalarni hisobga olgan holda taqsimlanishi kerak. Biroq iqtisodiy samaradorlikni baholashda faqat foyda miqdori emas, balki aholining asosiy ehtiyojlari, oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik talablar ham hisobga olinishi zarur.

3. Suv tejamkorligi tamoyili. Suvni tejash, yo‘qotishlarni kamaytirish, sug‘orish usullarini takomillashtirish va suvdan qayta foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish boshqaruvning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

4. Havza tamoyili. Suv resurslarini faqat ma’muriy hududlar doirasida emas, balki daryo havzalari va yagona suv tizimi xususiyatlaridan kelib chiqib boshqarish maqsadga muvofiq. Chunki suvning yuqori va quyi oqimida joylashgan hududlar manfaatlari o‘zaro bog‘liq.

5. Ekologik barqarorlik tamoyili. Suvdan foydalanishda daryolar, ko‘llar, yer osti suvlari va boshqa tabiiy tizimlarning ekologik holati hisobga olinishi lozim. Suv resurslaridan haddan tashqari foydalanish uzoq muddatda iqtisodiy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

6. Ijtimoiy adolat tamoyili. Suv resurslaridan foydalanishda aholining ichimlik suviga bo‘lgan asosiy ehtiyojlari, turli iste’molchilarning qonuniy manfaatlari va hududlar o‘rtasidagi mutanosiblik ta’minlanishi zarur.

7. Iqtisodiy rag‘batlantirish tamoyili. Suvni tejaydigan iste’molchilarni qo‘llab-quvvatlash, suv isrofgarchiligini kamaytirish va samarali texnologiyalarga investitsiya kiritishni rag‘batlantirish mexanizmlari joriy etilishi kerak.

8. Integratsiyalashgan boshqaruv tamoyili. Suv resurslarini boshqarishda qishloq xo‘jaligi, energetika, sanoat, kommunal xo‘jalik va atrof-muhit muhofazasi sohalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hisobga olinishi lozim.

9. Shaffoflik va javobgarlik tamoyili. Suv taqsimoti, iste’mol hajmlari, to‘lovlar va infratuzilma xarajatlari haqidagi ma’lumotlarning ochiqligi boshqaruvga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Suvdan foydalanuvchilarning qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etishi ham muhim ahamiyatga ega.

10. Innovatsion rivojlanish tamoyili. Suv hisobini raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari, masofadan kuzatish vositalari va zamonaviy sug‘orish texnologiyalaridan foydalanish boshqaruv sifatini oshiradi.

Ushbu tamoyillar bir-birini to‘ldirib boradi. Masalan, suvni iqtisodiy jihatdan samarali taqsimlash ekologik talablarga zid kelmasligi, suv tejamkorligi esa aholining zarur ehtiyojlarini cheklash hisobiga ta’minlanmasligi kerak.

Suv resurslarini boshqarish natijadorligini aniqlash uchun iqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Asosiy ko‘rsatkichlar qatoriga bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan suv hajmi, suv yo‘qotishlari darajasi, suvni yetkazib berish xarajatlari, suvdan foydalanish natijasida olingan daromad va suv tejovchi texnologiyalarning samaradorligi kiradi.

Masalan, suvdan foydalanishning iqtisodiy natijadorligini quyidagi formula orqali baholash mumkin:

$$E_w = \frac{Y}{W} \qquad (1)$$

bu yerda:

E_w – suvdan foydalanishning iqtisodiy natijadorligi;

Y –muayyan davrda yaratilgan mahsulot qiymati yoki qo‘shilgan qiymat;

W – ishlab chiqarishda foydalanilgan suv hajmi.

Ushbu ko‘rsatkich bir birlik suv hisobiga qancha iqtisodiy natija yaratilganini ifodalaydi. Ko‘rsatkichning o‘sishi suvdan foydalanish natijadorligi oshganini anglatishi mumkin. Biroq mahsulot tarkibi, narxlar o‘zgarishi va ishlab chiqarish texnologiyalaridagi farqlar ham hisobga olinishi zarur.

Suv yo‘qotishlarini baholash uchun quyidagi nisbiy ko‘rsatkichdan foydalanish mumkin:

$$L_w = \frac{W_l}{W_s} \cdot 100\% \qquad (2)$$

bu yerda:

L_w – suv yo‘qotishlarining nisbiy darajasi;

W_l – suv tizimida yo‘qotilgan suv hajmi;

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

W_s – tizimga uzatilgan suv hajmi.

Mazkur ko‘rsatkich kanallar, quvurlar va boshqa suv yetkazib berish infratuzilmasidagi yo‘qotishlarni baholashda qo‘llanilishi mumkin. Hisoblashda suv olish nuqtasi, iste’mol nuqtasi va qaytariladigan suv hajmlari aniq belgilanishi lozim.

Suv tejovchi texnologiyalarga investitsiya kiritish samaradorligini esa joriy etishdan oldingi va keyingi xarajatlar, suv sarfi, hosildorlik hamda qo‘shimcha daromadni taqqoslash orqali aniqlash mumkin. Bunda texnologiyani xarid qilish, o‘rnatish, energiya sarfi va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari ham hisobga olinishi zarur.

Shunday qilib, suv resurslarini boshqarish samaradorligi yagona ko‘rsatkich bilan emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalarni birgalikda baholash orqali aniqlanishi maqsadga muvofiq.

O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarish qishloq xo‘jaligi, aholini ichimlik suvi bilan ta’minlash, sanoat va ekologik barqarorlik uchun alohida ahamiyatga ega. Sug‘orma dehqonchilikning mavjudligi suv resurslaridan samarali foydalanishni mamlakat iqtisodiy siyosatidagi muhim yo‘nalishlardan biriga aylantiradi.

Birinchidan, suv yetkazib berish infratuzilmasini modernizatsiya qilish zarur. Kanallar va sug‘orish tarmoqlarini ta’mirlash, suv hisobini yaxshilash hamda texnik yo‘qotishlarni kamaytirish orqali mavjud resurslardan samaraliroq foydalanish mumkin.

Ikkinchidan, suv tejovchi texnologiyalarni iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirish lozim. Tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish, tuproq namligini nazorat qilish, ekinlarning suvga bo‘lgan ehtiyojini hisoblash kabi usullar suv sarfini maqbullashtirish imkonini beradi. Ularning iqtisodiy samarasi esa har bir hududning tabiiy sharoiti, ekin turi, energiya xarajatlari va investitsiya imkoniyatlarini hisobga olgan holda baholanishi kerak.

Uchinchidan, suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim. Suv o‘lchash qurilmalari, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va elektron ma’lumotlar bazalari suv taqsimoti ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, suvdan foydalanuvchilar o‘rtasida iqtisodiy manfaatdorlikni shakllantirish zarur. Bunda suv yetkazib berish xizmatlarining xarajatlarini hisobga olish bilan birga, fermer xo‘jaliklarining moliyaviy imkoniyatlari, kichik ishlab chiqaruvchilar manfaatlari va suvdan tejamkor foydalanishni qo‘llab-quvvatlash choralari e’tiborga olinishi lozim.

Beshinchidan, suv resurslarini boshqarishda havzaviy yondashuvni, idoralararo hamkorlikni va transchegaraviy suv masalalari bo‘yicha kelishuvlarni rivojlantirish talab etiladi. Chunki suv resurslarining shakllanishi va taqsimlanishi ko‘p hollarda bir nechta hudud yoki davlat manfaatlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Oltinchidan, suvdan foydalanish samaradorligini baholashda hududiy va tarmoq xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Ushbu yo‘nalishlarni amalga oshirish suvdan foydalanishdagi yo‘qotishlarni kamaytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini maqbullashtirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

1-jadval

O‘zbekistonda jami olingan suv miqdorining o‘zgarishi (2020–2025 yillar)

Yillar	Jami olingan suv, mln m^3	Oldingi yilga nisbatan o‘zgarish, %
2020	51 217,17	—
2021	43 661,60	−14,75
2022	44 487,60	+1,89
2023	45 961,50	+3,31
2024	45 280,60	−1,48
2025	45 533,80	+0,56

Manba: Milliy statistika qo‘mitasining SIAT rasmiy ma’lumotlar bazasi.

2-jadval

Sug‘orish uchun olingan suv miqdori (2020–2025 yillar)

Yillar	Jami olingan suv, mln m^3	Oldingi yilga nisbatan o‘zgarish, %
2020	45 930,40	—
2021	38 452,10	−16,28
2022	38 838,50	+1,00
2023	40 022,50	+3,05
2024	39 934,50	−0,22
2025	40 681,00	+1,87

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari, SIAT.

3-jadval

Jami olingan suv tarkibida sug‘orish suvining ulushi (2020–2025 yillar)

Yillar	Jami olingan suv, mln m^3	Sug‘orish suvi, mln m^3	Sug‘orish suvining ulushi, %
2020	51 217,17	45 930,40	89,68
2021	43 661,60	38 452,10	88,07
2022	44 487,60	38 838,50	87,30
2023	45 961,50	40 022,50	87,08
2024	45 280,60	39 934,50	88,19
2025	45 533,80	40 681,00	89,34

Manba: SIAT rasmiy statistika ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

4-jadval

Suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ma’lumotlar

Ko‘rsatkich	Qiymati
2017 yilda suv tejovchi texnologiyalar joriy etilgan maydon	28 ming ga
2024 yilda suv tejovchi texnologiyalar bilan qamrab olingan umumiy maydon	1,9 mln ga
2024 yilda tomchilatib sug‘orish texnologiyasi bilan qamrab olingan maydon	561 ming ga
2024 yilda suv tejovchi texnologiyalar hisobiga tejalgan suv	2 mlrd m³

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining rasmiy axboroti.

2020–2025 yillarda O‘zbekistonda jami olingan suv miqdori 51 217,17 mln m³ dan 45 533,80 mln m³ gacha, ya’ni taxminan 11,1 foizga kamaygan. Sug‘orish uchun olingan suv hajmi esa shu davrda 11,4 foizga qisqargan. 2025 yilda sug‘orish suvining jami olingan suvdagi ulushi 89,34 foizni tashkil etgan. Bu

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

qishloq xo‘jaligida suv resurslarini boshqarish va tejamkor texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatadi. Biroq suv olish hajmining kamayishini faqat tejamkor texnologiyalar natijasi deb baholash mumkin emas: bunda iqlim, suv ta’minoti, ekinlar tarkibi va boshqa omillar ham hisobga olinishi kerak.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyatini ochib berish, ulardan samarali foydalanish tamoyillarini asoslash va suv taqchilligi sharoitida resurslarni oqilona taqsimlashning ahamiyatini ko‘rsatish imkonini beradi. Suvdan foydalanish jarayonini faqat tabiiy resurslarni taqsimlash nuqtai nazaridan emas, balki iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy manfaatlar va ekologik muvozanatni ta’minlash nuqtai nazaridan ham baholash zarur.

Tadqiqot davomida suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy asoslarini o‘rganish quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, suv resurslarining cheklanganligi va ularga bo‘lgan talabning ortib borishi suvdan foydalanishda iqtisodiy mexanizmlarni qo‘llash zaruratini kuchaytiradi. Suv resurslarini boshqarishda ularning iqtisodiy qiymatini hisobga olish, suv sarfini me’yorlashtirish va resurslardan foydalanish natijalarini baholash muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, suv resurslarini samarali boshqarishning asosiy tamoyillari suvni tejash, resurslarni oqilona taqsimlash, iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash, ekologik barqarorlikni saqlash va suvdan foydalanuvchilar o‘rtasida institutsional hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

Uchinchidan, qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun tomchilatib sug‘orish, yomg‘irlatib sug‘orish va boshqa suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish muhimdir. Bunda texnologiyalarni tanlashda suvni tejash darajasi bilan bir qatorda ularni joriy etish xarajatlari, mahsulot hosildorligiga ta’siri va investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi ham hisobga olinishi lozim.

To‘rtinchidan, suv resurslarini boshqarish samaradorligini baholashda statistik va ekonometrik usullardan foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Suv sarfi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari qiymati, sug‘oriladigan yer maydoni, infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalar va suv tejovchi texnologiyalardan foydalanish ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish suvdan foydalanish natijadorligini aniqlash imkonini beradi.

Beshinchidan, suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalar, zamonaviy monitoring tizimlari va iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanishni kengaytirish zarur. Bunday yondashuv suvga bo‘lgan talabni prognozlash, uning taqsimotini optimallashtirish va resurslar taqchilligi sharoitida muqobil boshqaruv qarorlarini baholash imkonini yaratadi.

Umuman olganda, suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va tamoyillarini chuqur o‘rganish suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishini ta’minlash va ekologik muvozanatni

saqlashning muhim sharti hisoblanadi. Suv resurslarini iqtisodiy baholash, tejamkorlik tamoyillariga amal qilish va ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish orqali mavjud resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Bu esa mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi va suv xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi —O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida||gi PF-4947-sonli Farmoni. www.lex.uz.

2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining SIAT rasmiy ma'lumotlar bazasi. https://siat.stat.uz/

3. O'zbekiston Respublikasining suv resurslarini boshqarish va suvdan foydalanish sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlari.

4. United Nations. The United Nations World Water Development Report 2024: Water for Prosperity and Peace. UNESCO, Paris, 2024.

5. Rogers P., de Silva R., Bhatia R. Water is an economic good: How to use prices to promote equity, efficiency, and sustainability. Water Policy, 2002, Vol. 4, No. 1, pp. 1–17.

6. Global Water Partnership. Integrated Water Resources Management. TAC Background Papers No. 4. Stockholm, 2000.

7. Qodirov Z.E. Fermer xo'jaliklari faoliyatini optimallashtirish asosida iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash. MARKETING ilmiy, amaliy va ommabop jurnal. № 1-son yanvar, 2026-yil. WWW.MARKETINGJOURNAL.UZ. ISSN:3060-4621.

8. Qodirov Z.E. Klaster tizimining qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport hajmiga ta'sirini ekonometrik modellashtirish. "Экономака и социум" Электронное научно-практическое периодическое издание. Выпуск №2(141)-1 (февраль, 2026). Сайт: http://www.iupr.ru. **ISSN 2225-1545**

9. Qodirov Z.E. Fermer xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi. "YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI" jurnali 3-son 2026 yil. ISBN 978-9943-5256-3-4

10. Qodirov Z.E. Agroklasterlar tashkil etilishining qishloq aholisi bandligiga ta'siri: regional ekonometrik model. RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ILMIY ELEKTRON JURNAL, MAXSUS SON. 4 son 2026 y. http://dgeconomy.tsue.uz/

11. Qodirov Z.E. Suv va yer resurslari taqchilligi sharoitida fermer xo'jaliklari faoliyatini imitatsion modellashtirish. O'zbekiston – xitoy – rossiya universitetlarining Xalqaro ilmiy-texnik anjumani. Andijon davlat texnika instituti. 14-15 oktabr 2025 yil.

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy